

MEN UCHUN BO'LGAN OLIMLAR

ИДЕАЛЬНЫЕ УЧЕНЫЕ ДЛЯ МЕНЯ

IDEAL SCIENTISTS FOR ME

Karimova Muyassar

Andijon mashinasozlik instituti

“Gumanitar fanlar” kafedrası Dotsenti

Muhammadjon Salohiddinov Iqboljon o'g'li

Andijon Mashinasozlik Instituti Magistratura talabasi

muhammadi3722@gmail.com +998906213722 t/me: @inc99

Annotatsiya:

Men uchun eng muhim deb bilgan kashfiyotchilarimdan biri bu Steve Jobs va u yaratgan korporatsiya “Apple”, U haqida yoritlgan ushbu maqolada siz bu kompaniyaning qanday ijodkor olimlarning keng qamrovdagi foydali qurilmalarini yaratgan bilan tanishashiz.

Kalit so'zlar: Apple, Steve Jobs, Iphone telefon, kashfiyot, Central bloc, loyiha, kompyut, Computer engineering.

Аннотация:

Одним из самых важных изобретателей для меня является Стив Джобс и созданная им корпорация “Apple”. В этой статье о нем вы узнаете, как творческие ученые этой компании создали множество полезных устройств.

Ключевые слова: Apple, Стив Джобс, телефон Iphone, открытие, центральный блок, проект, компьютер, вычислительная техника.

Anotation:

One of the most important inventors for me is Steve Jobs and the corporation he created, Apple. In this article about him, you will learn how creative scientists of this company have created a wide range of useful devices



Key words: Apple, Steve Jobs, Iphone phone, discovery, central unit, project, computer, computer technology.

Insoniyat yaralibdiki o'zi uchun qulay bo'lgan qurilmalarni jihoz-u uskunalarni va barcha texnikalarni o'zi uchun, oilasi uchun va yaqinlari qolaversa butun insoniyat olami uchun yangiliklarni yaratib kelishga intilishgan desam mubolag'a bo'lmaydi. Mening hayotimda kashfiyot qilish uchun tabiat hodisalarini va jamiyat qonunlarini ongli ravishda ilmiy tahlil qilish uning mohiyatini tushunib yetish va u qanday funktsiya bajarishini anglab yetgan olim sifatida gavalangan Steve kompyuterlar haqidagi tushunchalarimni butunlay o'zgartirib yuborgan.[1] Bulardan misol tariqasida Appel kompyuterlari, Iphone telefonlari va hammaga malum bo'lgan Macbook kompyuterlariyu va simsiz quvvatlanuvchi quloqchinlar hamda blok manbalari haqida yoritmoqchiman[2].

Steve Jobs, u o'z hayotining 20-24 yoshlarini shunchaki Universitetdagi bir yo'nalishni tanlashga va ushbu yo'nalishda oddiy bir o'qituvchi yoki muhandis, elektronik hodim bo'lishni istamasdi u o'zida butun yo'nalishni kashf qilishni hohlardi shu sababdan u Stanford Universitetining Calligraphy (kaligrafiya), Electronics (elektronikalar) Computer engineering (muhandislik) yo'nalishlarida qo'shimcha darslarga qatnashishdan boshlagan va umumiy ilm olishga intilgan.[3] U o'zining ilk mahsuloti haridorini ushbu universitetdagi Kompyuter klubi a'zosi bo'lgan hodimga sotishni yo'lga qo'yadi va bu mahsulot esa "Central bloc" (markaziy boshqaruv tizimi) bo'lgan.

Albatta buni bir o'zi amalga oshira olmasdi uning yaqin do'sti bo'lgan Woznyak hamda mahalladoshi Alexar bilan Otasining garajida yig'ishgan.

1976 yilda 21 yoshlik Jobs Stiv Woznyak bilan birgalikda "Apple Computers" kompaniyasiga asos soladi. Ikkovlashib ular kompyuter industriyasida inqilob yasaydilar. Iste'molchilar uchun mashinalarni kichikroq, arzonroq, tushunarliroq va hammabop qildilar. 1980 yilda "Apple Computers" ochiq aksionerlik jamiyatiga aylantirildi va savdoning birinchi kunidanoq uning narxi 1,2 mld dollarga yetdi.[4]

Apple ning kundalik hayotda qo'llanilishi: Stenford Universitetining anjumanlar zalida o'tqazilgan ko'rgazmada Steve va uning do'sti o'zlarining ilk shartnomalarini "Apple 1" kompyuterlari uchun tuzishadi va 100 ta Umumiy blok uchun taklif oladi va haar biri 500 \$ USD dan bo'ladi. Muddatni vaqti oz bo'lgani



sababli ular jamoa yig'ishga majbur bo'lishadi, ular ilk kompyuterlarini adashib yani umumiy yig'ilgan blok ko'rinishida emas faqat platani o'zini kichik datchiklar bilan jamlab olib kelishadi. Ammo haridorga Monitor, Klaviatura, Plata, sichqonchalarni umumiy shaxsiy kompyuterni aytgan edi ammo Steve uddaburonlik qilib qolganini o'zingiz yig'ib sotsangiz ko'proq foyda olasiz degani haridorga maqul kelgan va hammasini sotishgan. Mijozga esa siz albatta "Apple 2" ga qiziqib qolishingiz aniq deb aytadi vaholanki yangi modellari haqida Stevening o'zini ham habari yo'q edi. Ilk kompyuterlari sotila boshlagan Apple jamoasi azolari o'zlarining mahsulotlarini shaxsiy shovqinsiz kompyuterlar deb atashgan uni esa Amerika, Kaliforniya shtati aholisiga maqul kelgani hammaga malum.[5]

Jamoa azolarida va uning Ota Onasida Apple uchun investitsiya kiritishga yetarli mablag' bo'lmagan. Shu tufayli ular o'zlariga investor topishlari shart edi. Steve deyarli 15 kun kuniga 1500 martacha qo'ng'iroq qilib kata kompaniyalardan investorlarni jalb qilishga urinadi ammo hech narsa chiqmaydi. Bir muddat o'tgach Mike Markula ismli Valentalia brendiga asos solgan shaxs kelib ular bilan suhbatlashadi va shunchaki kichik bir garajdan boshlanayotgan ishlab chiqarishni va haridorlari yo'q bo'lgan kompaniyani ko'rib hafsalasi pir bo'ladi ammo Steve va uning jamoadoshlarining ko'zlaridan ishtiyoqni ko'radi, bu narsa istiqbolli loyihalarga asos bo'lishi mumkun deya investitsiya kiritishga qiziqadi va boshlanishiga 90 000 \$ Dollar kiritadi Steve jamoadoshlari esa esankirab qoladi ammo Steve esa umumiy baholash 300 000 \$ bo'ladi ammo boshlanishiga 90 ming yetarli deya fikrini davom ettiradi, bundan tashqari ijobiy natijaga erishilgan so'ng to'lash sharti bilan yiliga 10 % stavkali 250 000 ming dollarlik kredit liniya ochib berishini so'raydi. Mike esa bunga rozi bo'ladi.[6]

Apple kompyuterlari 1977-yil San Fransiscoda Apple 2 mukammal kompyuterni ommaga taqdim qiladi, va shu ondan boshlab butun Kaliforniya aholisiga bu kompyuter judayam maqul keladi sababi u mukammal yig'ilgan edi.

Sotuv hajmi ulgurji darajada rivojlanib ketadi va kompaniyasiga 5000 dan ziyod hodimlarni 1980 yilda oladi. Bosh office esa Kupertino da joylashgan. Steve juda talabchan edi office da kim uning mafkurasiga qiziqishlariga va qolaversa eng kichik bo'lgan malumotlarga ham shunaqangi puxta turardiki 10 yillik tajribaga ega dasturchalarni ham agar Apple malumotlarini qiziqishini kam bo'lganligini bilib qolsa shu zahoti bo'shatib yuborar edi. Yaqin do'sti Daniel bunga yaqqol



misol bo'ladi, u ishga layoqatsiz masuliyat bilan yondashmayotganidan habar topgan bo'ladi. Apple 2000-yilgacha ommaga eng mashxur brend bo'lib tanilib bo'lgan edi. O'sha vaqtlarda ularga dushman kompaniyalar IBM, Microsoft va boshqalar, IBM Apple dan nusxa ko'chirgan edi. Steve judayam qiziqqon u yangi loyihalar ustida ishlardi bulardan biri Liza loyihasi shu tufayli Steve ni o'z jamoasidan ayirishadi chunki u judayam ko'p mablag' talab qilardi. [7]

Makintosh Yangi loyiha ular judayam aniq va mukammal hotiraga ega kompyuterlarni jamlaydi. Bu loyiha hatto Apple 2 dan ham ko'ra ko'proq haridorga ega bo'ladi bu esa kompaniya uchun kata yutuq. Ammo bu kompyuterlarni Steve eng qimmat va judayam aniqlikda ishlovchi detallardan yig'adi. Kompaniya siyotini o'z qo'liga olgan boshliqlar uning narxini foyda uchun anchayin qimmat qilishadi 1985-yilda Apple asoschisi Stiv Djobs Apple kompaniyasini tark etgach, mahsulotni ishlab chiqarish avvalroq Apple France boshqaruvchisi bo'lgan Jan-Lui Gasseega topshiriladi. Gassée doimiy ravishda Apple mahsulot liniyasini ikki yo'nalishda, kengaytirilishi va o'zaro muvofiqligi nuqtai nazaridan ko'proq ochiqlikka va yuqori narxga e'tibor berishiga olib keladi. Gasse uzoq vaqt davomida Apple kompaniyasi daromadlari past bo'lgan kompyuter bozorining past qismini maqsad qilib qo'ymasligini, aksincha yuqori daromad darajasiga e'tibor qaratish kerakligini ta'kidlaydi. U konsepsiyani pastki chap tomonda past quvvatli, arzon qurilmalar va yuqori o'ng tomonda yuqori quvvatli hamda yuqori xarajatli qurilmalari bo'lgan kompyuterlarning narxlari va ishlash nisbatlarini ko'rsatadigan grafik yordamida tasvirlab beradi.[8]

Airpods, iMac, Macbook Pro.

Airpodlar bular judayam mukammal ishlangan texnikalar desam mubolag'a bo'lmaydi bular aniqlik darajasi shunaqangi mukammalki bu loyihadan hatto boshqa mashxur kompaniyalar nusxa ko'chirishgan. Mac-book lari esa hayratlanarli darajadagi hotiraga noutbooklar va ajoyib dyumli monitorga ega.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki kashfiyotlar bizning yani insoniyat olamining og'irini yengil, mushkullarni osonlashtirish uchun qolaversa uni qulaylashtirishga qaratilgan va ular biz uchun hizmat qiladi. Bunday kashfiyotlarning ortida olimlar izlanuvchilarning qattiq mashaqqatli mehnatlari turadi, biz esa Steve va uning jamoasidan shuni o'rgansak bo'ladi.[9]



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduqayumovna K. M. THE IMPACT OF SOCIETY'S THINKING ON THE DEVELOPMENT OF THE FAMILY ECONOMY. – 2023.
2. Rahkmonova D. S. CONCEPT AND STRATEGIES FOR ITS DEVELOPMENT IN THE DIRECTION OF THINKING DESIGN. – 2023.
3. Sh S. B. ACTIVITIES OF THE ADVISORY COUNCIL (SUPREME COUNCIL) IN THE KOKAND KHANATE. – 2023.
4. Нажимидинова Д. Ф. ОИЛА ТИНЧЛИГИ ЖАМИЯТ ФАРОВОНЛИГИ //Journal of new century innovations. – 2023. – Т. 12. – №. 1. – С. 77-81.
- Saidovna R. D. PROFESSIONAL COMPETENCE OF THE EDUCATOR–THE MAIN FACTOR ENSURING THE QUALITY OF EDUCATION //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – Т. 3. – С. 226-231.
2. Raxmonova D. S. TALABALARDA KREATIV QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHDA NOODATIY FIKRLASH USULLARIDAN FOYDALANISH //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 183-189.
3. Saidovna R. D. A SYSTEMATIC APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVE ABILITIES //Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 133-142.
4. Saidovna R. D. Pedagogical creativity as a factor of student development //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – Т. 2. – №. 05. – С. 729-736.
5. Baxtiyorovna Y. B. FORMATION OF INDEPENDENT THINKING AMONG YOUNG PEOPLE–TODAY IS THE MOST RELEVANT DAY IN PEDAGOGY AS A FUNCTION //Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 143-148.
6. Каримова М. А. ЗАРДУШТИЙЛИК ДИНИДА ЧОРВАЧИЛИК БИЛАН БОҒЛИҚ МАРОСИМЛАР //Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 82-86.27.
7. G'ulomjonovna N. D., Muhitdin o'g'li T. M. ILMIY-IJODIY FAOLIYATDA OLIMNING SHAHSIY FAZILATLARI //Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 467-471.



8. Каримова М. А. ЁШ АВЛОДГА ТАЪЛИМ ВА ТАРБИЯ БЕРИШДА ЎҚИТУВЧИНИНГ ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТИ ВА ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ //Proceedings of International Educators Conference. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 21-26.

9. Abduqayumovna K. M. INTERACTION OF OBJECT, SUBJECT AND SYNERGETIC CATEGORIES IN SCIENTIFIC WORK //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – Т. 3. – С. 25-29.

